

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.17.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

PARMONOV G‘AYRAT MAXMATQULOVICH

**“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI” AJ
CHIQINDI SAQLASH MAYDONLARI VOLFRAM KEKLARINI
KOMPLEKS QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
of technical sciences**

Parmonov G'ayrat Maxmatqulovich

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari
volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab
chiqish..... 3

Пармонов Гайрат Махматкулович

Разработка технологии комплексной переработки вольфрамовых кеков
отходов АО «Узбекский комбинат технологических металлов»..... 25

Parmonov Gayrat Makhmatkulovich

Development of a Technology for the Integrated Processing of Tungsten
Cake Waste from JSC “Uzbek Technological Metals Plant” 50

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 54

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.17.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

PARMONOV G'AYRAT MAXMATQULOVICH

**“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI” AJ
CHIQINDI SAQLASH MAYDONLARI VOLFRAM KEKLARINI
KOMPLEKS QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.02.01–Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2026.1.PhD/T5329 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Olmaliq davlat texnika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalilov Utkir Mirzakamolovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Saidaxmedov Aktam Abdusamiyevich,
texnika fanlari doktori, dotsent;

Xakimov Kamol Jurayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi PhD 03/2025.27.12.T.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil "03" oktyabr soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy. Qarshi davlat texnika universiteti majlislar zali. Tel.: (75) 221-09-23; faks: (75) 224-13-95; e-mail: info@qtmu.uz, www.kstu.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy. Qarshi davlat texnika universiteti majlislar zali. Tel.: (75) 220-09-24; faks: (75) 224-13-95).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "21" sentabr kuni tarqatildi.
(2026 yil 21" sentabrdagi №5-26 raqamli reestr bayonnomasi)



A.N. Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

O.A. Qayumov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy koini, t.f.d. dotsent

B.R. Voxidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda qattiq qotishmalar ishlab chiqarishda, mashinasozlikda, harbiy texnikalarda, burg'ilash jarayonlarida va ishlab chiqarishning boshqa sohalarida qo'llanilayotgan volfram metallini Sheelit konsentratlaridan, qattiq qotishma chiqindilaridan va volfram keklaridan ajratib olishning texnologik sxemalarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, volfram keklarini kompleks qayta ishlash gidrometallurgiya sanoati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu turli texnik, texnologik, tashkiliy va boshqa muammolarni hal etishni taqozo etadi. Volfram keklarni ikki bosqichli tanlab eritish hamda sifatli volfram (VI) oksidi olish bo'yicha ko'p yillik tajribalar natijasida volfram keklari to'liq zararsizlantirilishi aniqlandi. So'nggi yillarda volfram keklarini qayta ishlash va chiqindisiz texnologiyaga erishish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar bajarilishiga qaramay, natriy karbonat va nitrat kislota bilan tanlab eritish eng istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda. Yaqin kelajakda gidrometallurgiya, metallurgiya, konchilik, aviakosmos sanoatlarida hamda yuqori yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalar ishlab chiqarishda alohida qiziqish uyg'otadigan volfram (VI) oksidlarini qo'llash sohasining kengayishiga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoda konchilik va metallurgiya sanoatida qo'llanilayotgan noyob metallarini ajratib olish jarayonlarini takomillashtirish va ularning tozaligini oshirish imkonini beruvchi texnologik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, volfram keklarini kompleks qayta ishlashga qaratilgan samarador texnologiyalarni yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada volfram keklaridan volfram oksidi va kalsiy nitratni ajratib olishning eng samarali va chiqindisiz texnologik yechimlarini aniqlash, olingan volfram oksidini muqobil texnologik ko'rsatkichlarini asoslash, toza volfram oksidlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ ishlab chiqarish korxonalarini samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida¹ "Respublikada tog'-kon korxonalarini mineral-hom ashyo bazasidan foydalanish samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, sanoat chiqindilarini qayta ishlashning mavjud usullarini takomillashtirish va ulardan noyob metallarni olish texnologiyasini yaratish asosiy vazifalardan bo'lib, bu yo'nalishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son "Kon-metallurgiya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-sonli «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

sohasi korxonalari faoliyatini kelgusida takomillashtirish choralari haqida”gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PQ-4477-son, 2020-yil 15-maydagi “Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4715-son, 2021-yil 24-iyundagi “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5159-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish orqali ular tarkibidagi noyob metallarni ajratib olishni o‘rganish rivojiga xorijiy va mahalliy olimlar: A.N.Zelikman, A.V.Derevyankin, A.Yu.Dadabaev, A.T.Shoinbaev, D.Dyusebekov, I.I. Barinov, V.V. Koval, L.I. Kulikov, G.V. Chernyaev, H.Berg, H.A.Acciari, A.P.Surnikov, E.N.Mazurchuk, V.P.Bistrov, L.S.Strijko, A.P.Vinogradov, B.N.Laskorin, N.N.Semenov, E.V.Adamov, I.F.Barishnikov, S.S.Naboychenko, K.Sanakulov, E.A.Pirmatov, Y.P.Kupryakov, X.T.Sharipov, R.M.Mixriddinov, M.M.Yakubov, S.T.Parmonov va boshqa olimlar salmoqli hissalarini qo‘shganlar.

Jahon amaliyotida sanoat chiqindilaridan volfram va boshqa foydali komponentlarni ajratib olish bo‘yicha nazariy asoslarni yaratgan. Ularning ilmiy ishlari gidrometallurgik usullar (masalan, sulfatli, soda yoki ishqorli eritmalar bilan ishlov berish) va pirometallurgik yo‘llar bilan elementlarni ajratish texnologiyalarini taklif qilgan. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu sohada izlanishlar olib borilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Geologiya va geofizika instituti, Kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, hamda Navoiy davlat konchilik instituti olimlari tomonidan volfram rudalarini qayta ishlash, ularning mineralogik tahlili, boyitish usullari va keklardagi elementlar tarkibini aniqlash bo‘yicha ilmiy ishlar mavjud.

Biroq, mavjud adabiyotlarni chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, aynan “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlarida yig‘ilgan volfram keklarini kompleks qayta ishlash bo‘yicha maxsus texnologik yondashuvlar, yangi kompleks ishlov berish usullari, tanlab eritish yoki integratsiyalashgan texnologik sxemalar bo‘yicha izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Xususan, keklarning fizik-kimyoviy va fazaviy tarkibi, ulardan volfram oksidlarini ajratib olishning optimal sharoitlari, texnologik jarayonlar samaradorligi va ekologik xavfsizligini kompleks baholovchi tadqiqotlar yetishmaydi.

Shuning uchun volfram chiqindilarini qayta ishlashning mavjud texnologiyalarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo‘lib, tanlab eritish usuli ishlab chiqish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali ilmiy-tadqiqot rejasining AK-008/22 “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish” (2024 y.) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

volfram keklarini hamda ularning eritmalarining fizik-kimyoviy, minerologik va strukturaviy xususiyatlarini tahlil etish va erish tezligining omillarini aniqlash;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini kompleks qayta ishlab tarkibidan volfram (VI) oksidi va kalsiyli mineral o‘g‘itini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ volfram keklarini tanlab eritish jarayonining asosiy kimyoviy reaksiyalarini termodinamik tahlil etish va ta’sir etuvchi omillarini aniqlash;

volfram chiqindi saqlash maydonidagi keklarni gidrometallurgik usulda qayta ishlash orqali iqtisodiy tejankor texnologik zanjir sxemasini yaratish;

volfram keklarini qayta ishlashning material balansi va iqtisodiy samaradorligini ilmiy tahlil etish hamda innovasion texnologik jarayonni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlaridagi volfram keklari, ularning eritmalari, kalsiy nitrat eritmalari olingan.

Tadqiqotning predmetini “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlarida to‘plangan volfram chiqindi keklarini qayta ishlash jarayonlari va fizik-kimyoviy tahlillarni o‘z ichiga olgan kompleks gidrometallurgik texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda volfram keklarini tanlab eritish orqali qayta ishlash bo‘yicha faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi ilmiy-texnik ma’lumotlar va tajribalarni tahlil qilish; Rentgenofazali, IQ-spektral tahlil, fizik-kimyoviy tahlil, elektron mikroskopiya, rentgen fluoressent spektrogramma tahlil usullardan foydalangan holda nazariy tadqiqotlar; laboratoriya tajribalari, tajriba-sanoat sinovlari va ishlab chiqilgan usullarni ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazish; fizik-mexanik usullar, hamda zarrachalarning o‘lchami, shakli va zarracha sirtining morfologik tahlili, tajriba ma’lumotlarini qayta ishlashning matematik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ volfram tarkibli texnogen chiqindi keklarining fizik-kimyoviy xossalari, zarrachalarning yuza tuzilishi,

strukturalari, morfologiyasi va volfram birikmasining eritmaga o'tish qonuniyatlari aniqlangan;

volframli kekni kompleks qayta ishlashda gidrometallurgiya usulda, avtoklav qurilmasida P-25 atm gacha, T-200-250 haroratda asosiy volfram birikmasi parchalash omillari o'rganildi va 57 % HNO_3 eritmasida karbonatlarni parchalash jarayoni ishlab chiqilgan;

volfram keklarini bosqichma-bosqich tanlab eritish jarayonida harorat, vaqtga va Na_2CO_3 konsentratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar to'liq ilmiy tahlil etilib, asosiy metallning eritmaga o'tish darajasini 82,27% ga etganligi aniqlangan;

volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasining material balansi hisoblab chiqildi va uning samaradorligi, taqqoslama kalkulyatsiyasi ishlab chiqilgan;

kekni qayta ishlashning innovatsion texnologik uskunalarning ketma-ketlik zanjirli sxemasi yaratilgan va jarayonlarning bosqichli amaliy qonuniyatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini natriy karbonat eritmasi bilan kompleks qayta ishlab 87% li volfram (VI) oksidi olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini nitrat kislota ishtirokida kompleks qayta ishlab tarkibidagi kalsiy oksid birikmalarini to'liq zararsizlantirish orqali qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan 23%li kalsiyli mineral o'g'iti olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlarida 38500 m³ maydoni egallab turgan qattiq fazali volfram keklarini tanlab eritish orqali energotejamkor texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini qayta ishlash texnologiyasining bosqichlarini qisqartirish va umumiy xarajatlar kamaytirish hamda iqtisodiy tejamkorlikka erishish imkonini beruvchi texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan tasdiqlanadi: masalalarni qo'yish yo'nalishlari to'g'riligi, laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlarining yetarli va statistik jihatdan asoslangan hajmi; volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarning asosiy g'oyasini miqdoriy jihatdan tasdiqlash; olingan natijalarni laboratoriya sinovlari va fizik-kimyoviy asoslari usullari bilan mos kelishi; ishlab chiqilgan qayta ishlash texnologiyasini tajriba sharoitida sinovdan o'tkazishda olingan ijobiy natijalar; taklif qilingan tavsiyalar, usullarning sanoat aprotatsiyasi va erishilgan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati eng maqbul tuz va kislota lar ishtirokida volfram keklarini tanlab eritish usuli bilan qayta ishlash natijasida olingan volfram (VI) oksidining tozaligi hamda miqdori kek tarkibidagi qo'shimcha birikmalarga, tanlab eritish haroratiga va davomiyligiga, eritmaning quyuq-

suyuqligiga hamda natriy karbonat va nitrat kislota miqdoriga bog‘liq holda shakllanishining tartibi aniqlanganligi orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tanlab eritish texnologiyasi, kimyoviy tanlab eritish texnologiyasi, volfram keklarini kompleks qayta ishlab toza volfram (VI) oksidi hamda kalsiy karbonat olish texnologiyasi, tanlab eritish rejimlarini ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlarida to‘plangan volfram keklarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini natriy karbonat eritmasi bilan kompleks qayta ishlash texnologiyasi “O‘zbekiston KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi” da amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston KMK” AJ ning 2025 yil 19 avgustdagi №03/03-1525-sonli ma’lumotnomasi). Natijada 87% li volfram (VI) oksidi olish imkonini bergan;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini tanlab eritish texnologiyasi “O‘zbekiston KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi” da amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston KMK” AJ ning 2025 yil 19 avgustdagi №03/03-1525-sonli ma’lumotnomasi). Natijada volfram keklarini samarali qayta ishlash imkonini beruvchi energotejamkor texnologiyasi ishlab chiqish imkonini bergan;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini nitrat kislota ishtirokida kompleks qayta ishlash orqali tarkibidagi kalsiy oksid birikmalarini to‘liq zararsizlantirish texnologiyasi “O‘zbekiston KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi” da amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston KMK” AJ ning 2025 yil 19 avgustdagi №03/03-1525-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan 23%li kalsiyli mineral o‘g‘iti olish imkonini bergan;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini ekologik toza va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyasi “O‘zbekiston KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi” da amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston KMK” AJ ning 2025 yil 19 avgustdagi №03/03-1525-sonli ma’lumotnomasi). Natijada hajmi 38500 m³ maydoni egallab turgan qattiq fazali volfram keklarini to‘liq zararsizlantirish imkonini bergan;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlari volfram keklarini bosqichlari qisqartirilgan qayta ishlash texnologiyasi “O‘zbekiston KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi” da amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston KMK” AJ ning 2025 yil 19 avgustdagi №03/03-1525-sonli ma’lumotnomasi). Natijada umumiy xarajatlar kamaytirildi hamda iqtisodiy tejamkorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari va simpoziumlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola nashr etilgan, jumladan 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda. Shuningdek, natijalar 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamaga taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Volfram keklarini kompleks qayta ishlashning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan birinchi bobi volfram keklarini kompleks qayta ishlashning zamonaviy holati, ilmiy asoslari va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu bobda volfram keklarini texnogen xom ashyo sifatida baholangan, ularning tarkibi va xususiyatlari tahlil qilingan, jahon tajribasi va mavjud texnologiyalarni tanqidiy o'rganilgan.

Hozirgi vaqtda kon-metallurgiya sanoatining jadal rivojlanishi natijasida texnogen chiqindilar hajmi ortib bormoqda. Texnogen chiqindilar – bu foydali qazilmalarni qazib olish, boyitish va qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlar bo'lib, ular tarkibida iqtisodiy jihatdan qimmatli elementlar saqlanishi mumkin.

Volfram ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan asosiy texnogen chiqindilar turiga volfram keklari kiradi. Ular gidrometallurgik qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladi va tarkibida WO_3 hamda bir qator qo'shimcha komponentlar mavjud bo'ladi.

1-jadval

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonlarida to'plangan volfram keklari tarkibiy ulushi, %

M	WO_3	SiO_3	Al_2O_3	CaO	K_2O	P	Fe	S
%	0,05-1,5	38-45	5-8	17-30	1,2	0,04-0,06	5-12	1

Mazkur tarkib shuni ko'rsatadiki, volfram keklari ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Volfram oltinchi guruh elementi bo'lib, yuqori zichlik va kimyoviy barqarorlik xususiyatlariga ega. Uning asosiy sanoat birikmasi – volfram (VI) oksidi (WO_3) hisoblanadi.


Volframning asosiy minerallariga quyidagilar kiradi: volframit $(\text{Fe,Mn})\text{WO}_4$, sheelit CaWO_4 ; gyubnerit MnWO_4 , ferberit FeWO_4 . Mazkur mineralogik va fazaviy xususiyatlar keyingi gidrometallurgik jarayonlar samaradorligini belgilaydi.

Bobda volfram chiqindilarini qayta ishlashning gidrometallurgik va pirometallurgik usullari tahlil qilingan. Gidrometallurgik usullarga soda va ishqorli eritmalar bilan tanlab eritish, nitrat va sulfat kislotali ishlov, eritmadan selektiv cho'ktirishlar kiradi. Pirometallurgik usullar esa yuqori haroratda qayta eritish hamda qaytaruvchi muhitda ishlov berishdan iborat. Chiqindilarini qayta ishlashda gidrometallurgik usullar energiya tejamkorligi va selektivligi sababli istiqbolli hisoblanadi.

Xorijiy va mamlakatimiz olimlar tomonidan volfram chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha nazariy asoslar ishlab chiqilgan. Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aynan "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ chiqindi saqlash maydonlarida to'plangan volfram keklarini kompleks qayta ishlash bo'yicha maxsus texnologik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu fizik-kimyoviy jarayonlarning yetarli o'rganilmaganligi, tanlab eritish parametrlarining optimallashtirilmaganligi, ekologik xavfsizlikning to'liq baholanmaganligi, texnologik bosqichlarning ko'pligi va iqtisodiy samaradorlik pastligi muammolarni yuzaga keltiradi.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqotning obyektni tanlash va volfram hamda uning eritmalarining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash metodikalari"** deb nom olgan ikkinchi bobida tadqiqot obyektni tanlash, namunalar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash metodikalari izchil ravishda bayon etilgan bo'lib, mazkur bob dissertatsiyaning tajribaviy-metodologik asosini tashkil etadi. Bobning mantiqiy tuzilishi avvalo tadqiqot obyektni asoslash, so'ng namuna olish sxemasini ishlab chiqish, undan keyin esa qattiq faza va eritmalar tarkibini zamonaviy analitik usullar yordamida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyati, Chirchiq shahrida joylashgan "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ qoshidagi nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodining chiqindi saqlash maydonidagi volfram keklari tanlab olindi. Mazkur chiqindi maydonining umumiy hajmi 105600 m^3 ni tashkil etadi. Chiqindilar tarkibida volfram (VI) oksidi mavjudligi, ularning sanoat miqyosida qayta ishlash imkoniyati mavjudligi ushbu obyektni tanlashning ilmiy va amaliy asosini belgilab berdi.



A hudud. 1,5,7,8 - Volfram kekli maydon; 2,3,4,6- Molibden kekli maydon.
B hudud. B hudud. 2,4,5- Volframli eritma; 7,8,9,10- Molibdenli eritma.

1-rasm. “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ chiqindi saqlash maydonining yuqoridan ko‘rinishi.

Chiqindi saqlash maydoni bir necha sektor va saqlash hududlariga bo‘lingan bo‘lib, volframli keklar asosan 1-, 5-, 7- va 8-maydonlarda to‘plangan (2-jadval).

2-jadval

Chiqindi saqlash maydonida volfram tarkibli kekларining umumiy hajmi

	Nomlanishi	1 maydon	5 maydon	7 maydon	8 maydon	Umumiy hajmi
1	Umumiy hajmi, m ³	17800	7 400	7500	5800	38500
2	Qattiq faza miqdori, ming/tonna	5,8	5,0	10,0	6,4	31,2
3	WO ₃ miqdori, %	1,3%	0,8	1,6	0,8	1,13
4	WO ₃ ning miqdori, tonna	75,4	40,0	160,0	51,24	251,2

Tahlillar natijasida chiqindi maydonidagi volfram kekларida jami 251,2 tonnagacha WO₃ mavjudligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich texnogen chiqindilarni qayta ishlash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, saqlash idishlarida volframli eritmalar ham mavjud bo‘lib, ularning umumiy hajmi 8000 m³ ni tashkil etadi, volfram konsentratsiyasi o‘rtacha 2,0 g/l ga teng bo‘lib, umumiy volfram miqdori 16 tonnaga yaqin. Bu esa qattiq va suyuq fazalarni kompleks qayta ishlash zarurligini asoslaydi.

Namuna olish ishlari tizimli va fazoviy yondashuv asosida amalga oshirildi. Umumiy maydonda 67 ta nuqta belgilandi va turli chuqurliklardan 134 ta namuna olindi. Janubiy qismda 0,2–4 m, sharqiy qismda 0,1-8 m, g‘arbiy-shimoliy qismda esa turli chuqurliklardan namunalar olindi. Oraliq masofalar 10×10 m, 20×20 m,





50×50 m va 60×60 m etib belgilandi. Har bir namuna 0,1–1,0 kg og‘irlikda bo‘lib, umumiy massa 60 kg ni tashkil etdi. Namuna olishda konus va shaxmat usullaridan foydalanilib, qimmatbaho komponentlarning teng taqsimlanganligi nazorat qilindi.

Volframli bo‘tana tarkibida qattiq va suyuq faza nisbatini aniqlash texnologik jarayonni optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 100 ml namuna vakuumda filtrlanib, nam cho‘kma massasi aniqlanadi va 25% namlik hisobga olinib quruq modda massasi topildi. Masalan, 100 g nam cho‘kmaning 25 g qismi namlik bo‘lsa, quruq modda 75 g ni tashkil etdi, suyuqlik massasi 325 g bo‘lganda Q/S nisbati 1:4,33 ga teng bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich filtrlash va quritish jarayonlarini loyihalashda muhim parametr hisoblanadi.

Shunday qilib, ikkinchi bob doirasida tadqiqot obyektining ilmiy asoslangan tanlovi, tizimli namuna olish metodikasi hamda qattiq va suyuq fazalarni zamonaviy instrumental va kimyoviy usullar yordamida kompleks tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Olingan natijalar chiqindilardagi volfram resursining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularni sanoat miqyosida qayta ishlash imkoniyatlarini baholash hamda texnologik jarayonlarni optimallashtirish uchun mustahkam analitik asos yaratdi.

Dissertatsiyaning **“Volfram texnogen chiqindilarining fizik-kimyoviy xossalarini hamda volfram keklarini tanlab eritishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida volfram texnogen chiqindilarining fizik-kimyoviy xossalarini chuqur tahlil qilish hamda volfram keklarini tanlab eritish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ilmiy asosda o‘rganish masalalari yoritilgan bo‘lib, mazkur bob tajribaviy natijalar va nazariy tahlillar uyg‘unligiga asoslanadi. Bobning mantiqiy tuzilishi avvalo mavjud sanoat texnologiyasini o‘rganish, so‘ng keklarning tarkibiy va strukturaviy xossalarini aniqlash, undan keyin esa tanlab eritish jarayonining kinetik va texnologik omillarini tahlil qilish ketma-ketligida bayon etilgan.

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ qoshidagi nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodida volfram yarim tayyor mahsulotlari asosan avtoklav-sodali gidrometallurgik usulda olinadi. Ushbu usulda volfram keklari 20-25 atm bosimda va 200-250°C haroratda natriy karbonat ishtirokida parchalanadi. Asosiy reaksiyalar quyidagicha ifodalanadi:



Rentgen fazali va IQ-spektral tahlillar shuni ko‘rsatdiki, volfram keki tarkibida pH ko‘rsatkichi bo‘yicha quyidagi holatda bo‘ladi:


pH 8 - $\text{CaO} \cdot \text{WO}_3$;

pH 7 - $\text{CaO} \cdot 2\text{WO}_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$;

pH 6 - $\text{H}_2\text{WO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$;

pH 5,6 - $\text{CaO} \cdot 3\text{WO}_3 \cdot 6,5\text{H}_2\text{O}$;

pH 4,0 - $\text{CaO} \cdot 4\text{WO}_3 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$;




2 -rasm. Rentgenofazali va IQ-spektral tahlil natijalari

Shuningdek, kremniy, fosfor, mishyak va molibden birikmalari ham sodali muhitda o‘zaro reaksiyaga kirishadi. Reaksiya diffuzion-kinetik mexanizm asosida kechishi aniqlangan. Rentgen fazali va IQ-spektral tahlillar volfram kekidagi fazaviy o‘zgarishlar pH muhitiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Volfram kekining kimyoviy tarkibi EDXRF usulida o‘rganildi. Elementar tahlil natijalari quyidagi asosiy komponentlar ustunligini ko‘rsatdi:

Spectrum



3-rasm. Olingan element tarkibining rentgen fluoressent spektrogramma tahlili

Asosiylari massa ulushi 38,1 % kalsiy, kremniy - 3,72 %, temir - 3,01 % va natriy - 3,0 % ni mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, alyuminiy miqdori - 0,893 %, magniy - 0,68 %, fosfor 1,04 %ni, Xlor - 0,03 %ni va kaliy - 0,150 % miqdorini tashkil qiladi. Natija shuni ko‘rsatib turibdiki tarkibi aralashgan mineralogik tarkibga ega silikatlar, sulfatlar hamda karbonatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

EDS spektral tahlil natijalari ham kek tarkibining murakkabligini tasdiqladi. Asosiy elementlar sifatida Ca (55,95%), O (17,86%), Si (10,30%), Fe (5,19%) va W (2,01%) aniqlangan. Bu ma’lumotlar kekda oksidli va karbonatli fazalar ustunligini ko‘rsatadi.

SEM tahlillari volfram kekining sirt morfologiyasi notekis, g'ovaksimon va agregatlangan tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi. 2600× dan 11000× gacha kattalashtirilgan tasvirlarda yirik zich zarrachalar va mayda dispers fazalar mavjudligi kuzatildi. Ayrim zarrachalarning yuzasi karbonat plyonkasi bilan qoplangan bo'lib, bu diffuziya jarayonini sekinlashtiradi.


Karbonat qobiq asosan 62-65% kalsitdan iborat bo'lib, sheelit zarrachalarini o'rab turadi. Diffuzion qatlam qalinligi 100 mkm dan oshganda sodaning mineralga kirishi to'xtashi aniqlangan. Shu sababli keklarga 57% li nitrat kislota bilan ishlov berilib, karbonat qatlamining parchalanishi ta'minlandi. Tanlab eritish jarayonida zarracha yirikligi muhim kinetik omil sifatida baholandi. 95°C haroratda 25 g/l Na₂CO₃ eritmasida o'tkazilgan tajribalar natijalari quyidagicha:

3-jadval

Volfram keklarini erish tezligining qiymatlari

Volfram kekining o'lchami, mm	Erish tezligi, 10 ³ mol/l min
-0,074	2,78
-0,105 +0,074	2,16
-0,1484+0,105	1,99
-0,250+0,148	1,175
0,40+0,250	0,48

Natijalar zarracha maydalanishi bilan erish tezligi ortishini ko'rsatdi. Bu solishtirma yuzaning ortishi bilan reaksiya tezlashishini tasdiqlaydi. Volframning eritmaga o'tish darajasi ham zarracha yirikligiga bog'liq holda o'rganildi:



- 1) -0,074 mm; 2) -0,105 +0,074 mm; 3) - 0,148+ 0,105 mm; 4) -0,250+0,148 mm;
5) -0,40 +0,250 mm.

4-rasm. Soda eritmasida turli o'lchamli volfram keklarining 95° C da erish kinetikasi

Tajribada aniqlangan erish tezligi volfram keki zarrachalarining solishtirma yuzasi kattaligiga proporsional bo‘ladi.


Volfram keklarini 95°C haroratda 2 soat davomida, 2 mkm gacha bo‘lgan juda yupqa zarrachalarini tanlab eritish, ishqorlashda volframni eritmaga ajratib olishda o‘lcham natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Kek o‘lchamlarining tanlab eritish va ishqorlash jarayonida volframning eritmaga o‘tishiga bog‘liqligi


Volfram keking o‘lchami, mm	Volframni eritmaga ajralishi, %	Yiriklik sinfi, mm	Volframni eritmaga ajralishi, %
– 0.002	81.54	– 0.053 + 0.037	76.52
– 0.005 + 0.002	80.72	– 0.074 + 0.053	75.15
– 0.010 + 0.005	79.69	– 0.100 + 0.074	74.10
– 0.020 + 0.010	78.81	– 0.150 + 0.100	73.25
– 0.037 + 0.020	77.32	– 0.210 + 0.150	72.24

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, volfram keking zarrachalar o‘lchamlarining kamayishi, ya’ni ularning solishtirma yuzasi oshishi bilan volframning eritmaga ajralish darajasi sezilarli ravishda ortadi. Bunda mayda fraksiyali zarrachalar yuqori reaktivlik va erituvchi Na_2CO_3 bilan faol ta’sirlashish xususiyatiga ega. Volfram keklaridan WO_3 ni tanlab eritish usuli orqali samarali ajratib olishda kekning o‘lchamiga, temperaturaga, Q:S nisbatiga hamda Na_2CO_3 eritmasi konsentratsiyasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, konsentratsiyaning ortishi bilan eritma muhitining agressivligi oshadi va natijada volframning ajralish samaradorligi yuqori bo‘ladi.



1) -2,4 g/l WO_3 , 2) -2,1 g/l WO_3 , 3) -1,8 g/l WO_3 , 4) 1,5 g/l WO_3 , 5) volframsiz soda eritmasi.

5-rasm. Turli konsentratsiyalardagi soda eritmalarida volfram miqdori volfram plyonkalarining erish tezligiga ta’siri.



1) $WO_3 : Na_2CO_3$ molyar nisbati ortib borishi bilan reaksiyaning yuzaga nisbatan tezligi 2) Reaksiyaning o‘rtacha kinetik holati 3) Yuqori molyar nisbatlarda reaksiya tezligining minimal qiymatlarda yaqinlashishi.

6-rasm. $WO_3 : Na_2CO_3$ molyar nisbatiga ko‘ra reaksiya tezligining o‘zgarishi

WO_3 va Na_2CO_3 o‘rtasidagi molyar nisbati ortib borishi bilan reaksiyaning yuzaga nisbatan tezligi muntazam ravishda kamayib boradi. Jarayonning boshlang‘ich qismida reaksiya tezligi yuqori bo‘lib, kimyoviy faollik kuchli bo‘ladi. Molyar nisbat oshishi bilan jarayonda faol komponentlarning kamayishi natijasida reaksiya kinetikasi sekinlashadi. Yuqori nisbatlarda jarayon asosan diffuziya va reagentlar yetishmovchiligi bilan cheklanib, reaksiya tezligi minimal qiymatlarga yaqinlashadi. Bu holatda optimal molyar nisbatni tanlash texnologik jarayon samaradorligi uchun muhim hisoblanadi. Ma’lumki, volfram keklarini tanlab eritish vaqti yetarlicha bo‘lmaganda eritmada volframning nisbiy miqdori ortishi bilan kekning erish tezligi pasayishi bilan WO_3 ajralishi kamayadi.

Shunday qilib, ushbu bob doirasida volfram kekining kimyoviy, fazaviy va morfologik xususiyatlari kompleks tahlil qilindi, tanlab eritish jarayoniga ta’sir etuvchi zarracha yirikligi, soda konsentratsiyasi, volframat miqdori va diffuzion omillar aniqlashtirildi. Olingan natijalar volfram texnogen chiqindilarini samarali qayta ishlash uchun ilmiy asoslangan texnologik yechim ishlab chiqishga imkon berdi.

Dissertatsiyaning “**Volfram VI-oksidi kukunini olishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida volfram ishlab chiqarishning asosiy texnologiyasidan ajralib chiqqan volfram keklarini qayta ishlashda gidrometallurgik usul orqali oddiy sharoitda soda ishtirokida volfram VI-oksidi ishlab chiqarish va kimyoviy tanlab eritish orqali kislota ishtirokida volfram keki tarkibidan kalsiy karbonatni eritmaga o‘tkazish usulining ilmiy-amaliy tadqiqotlari keltirilgan.

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ qoshidagi Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodida mavjud volfram keklari tarkibini


laboratoriya sharoitida energiya dispersiyali rentgen-fluorescent (EDXRF) spektrometrida kimyoviy tahlil qilindi (5- jadval).

5-jadval

Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi chiqindi saqlash maydonidagi kekning kimyoviy tarkibi (EDXRF)

Aniqlanayotgan elementlar, %									
M	W	Ca	Si	Fe	Na	P	Al	Mg	Co
%	1,08	38,1	3,72	3,01	3,00	1,04	0,893	0,688	0,223
M	Zr	Mn	Pb	Cu	S	Ni	K	Mo	Ti
%	0,223	0,251	0,192	0,171	0,145	0,138	0,150	0,159	0,021
M	Cl	Cr	As	Ba	Sn	Y	Sr	Bi	Yb
%	0,0305	0,0259	0,0228	0,087	0,108	0,0231	0,0252	0,0145	0,0739
M	Lu	Nb	Ag	Te	Ga	Rb	U	Boshqalar	
%	0,0273	0,0118	0,0041	0,0016	0,0006	0,0019	0,0014		

